



HARBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHISINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTERFAOL USULLARNI TATBIQ QILISH.

Najmitdinov Muzaffar Kamoldinovich

FarDu Harbiy ta'lim fakulteti o'q'tuvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada mashg'ulot turlariga qarab o'quv jarayoniga interfaol usullarni tatbiq qilish orqali mashg'ulot samaradorligini oshirish, qo'llanayotgan interfaol usullar materiallarni o'zlashtirishda qanday samara berishi to'g'risida mulohaza keltirilgan.*

Kalit so'zlar: «Aqliy hujum», «Labirint», «Zinama-zina», «CHarxpalak», «Idrok xaritasi». «Bumerang», «Aql charxi», «Tushunchalar tahlili», «Muammo», «Blits-so'rov», «Tarmoqlar».

Аннотация: *В данной статье обсуждается, насколько интерактивные методы, используемое для повышения эффективности обучения за счет применения интерактивных методов в процессе обучения, в зависимости от типа обучения, эффективны при усвоении материалов.*

Ключевые слова: «Мозговой атака», «Лабиринт», «Шаг за шагом», «Колесо», «Карта восприятия», «Бумеранг», «Колесо разума», «Концептуальный анализ», «Проблема», «Блиц-опрос», «Сети»

Annotation: *This article explores how interactive techniques used to boost the efficacy of learning through the use of interactive techniques used to boost the efficacy of learning through the use of interactive techniques in the learning process are successful in the assimilation of materials, depending on the kind of learning.*

Key words: «Brainstorming», «Maze», «Step by step», «Wheel», «Perception Map», «Boomerang», «Mind Wheel», «Concept Analysis», «Problem», «Blitz Survey», «Networks».

Inson qalbiga yo'l, eng avvalo, ta'lim - tarbiyadan boshlanadi. YOshlar ma'naviyatini yuksaltirishda, ularda sog'lom tafakkur, mustaqil dunyoqarashni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni alohida ahamiyatga ega. CHunki, ta'lim-tarbiya tizimida ong va tafakkurning rivojlanish jarayoni kechadi, o'z navbatida, yoshlarga bilim egallash bilan birga, vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik kabi qadriyatlarni o'zlashtirishga ham yaqindan yordam beriladi. Bu esa nafaqat mamlakatning intellektual jihatdan yuksalishi, shuningdek, ma'naviy barkamol insonlar shakllanishini ham ta'minlaydi.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning «SHuni unutmash kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq», - degan teran fikrlari zamirida olam-olam ma'no yotadi.



Fan-texnika taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarish sohasiga, balki madaniyat, ta'lim sohaslariga ham kirib bormoqda. Texnologiyalashtirish, bu-ob'ektiv jarayon bo'lib, ta'lim evolyusiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davri hisoblanadi.

Texnologiyalarning turli jabhalarga kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratib bermoqda. «Elektron ta'lim», «Elektron boshqaruv», «Masofaviy ta'lim», «Ochiq ta'lim», «Axborotlashgan iqtisod» kabitushunchalar hayotimizga kirib keldi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, texnologiyalar, jumladan, axborot texnologiyalari, Internetning ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim xizmatlarining globallashtirish jarayonlariga katta yo'l ochib berdi. Rivojlangan davlatlar ta'lim sohasida bo'layotgan bunday ijobiy jihatlarni e'tiborga olgan holda, ta'lim sifatini yuksaltirish uchun yangi texnologiyalardan ommaviy ravishda foydalanish davr talabiga aylanmoqda.

Bugungi kunda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jag'olatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu kurashda yoshlarimiz kuchli makfurafiy immunitet, mustahkam iroda va sog'lom dunyoqarash bilangina g'olib chiqishlari muqarrar. Buning uchun, eng avvalo, inson qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalarni, jumladan, ta'lim-tarbiyadan boshlab, matbuot, televideniya, internet, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha bo'lgan barcha sohalarda kursantlarimizning ma'naviy ehtiyojlarini hamda mafkuraviy globallashtirish jarayonlarini hisobga olib, harbiy mutaxassislikka yo'naltirgan holda mashg'ulotlarni sifatli tashkil qilish va o'tkazish samaradorligiga alohida e'tibor qaratish zarur.

XXI asrga kelib, fan-texnikaning rivojlanishi va taraqqiy etishi bilan birga inson faoliyati chegarasi ham nihoyatda kengayib boryapti, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Yangi texnikaviy, axborot, audio-vizual vositalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati shundan iboratki, ta'limda kursantlarga bilim berish bilan bir qatorda uni to'liq o'zlashtirish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Yangi pedagogik texnologiyani amalda qo'llash bu pedagogdan katta mahorat va malaka talab qiladi.

Ta'limning zamonaviy talablaridan kelib chiqqan holda kursantlarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirishda interfaol uslublarda mashg'ulotni tashkil qilish va o'tkazishning samaradorligi yuqori bo'ladi. Mana shundan kelib chiqqan holda "Texnik tayyorgarlik" siklida mashg'ulotlarni o'tkazishda kursantlar nazariy bilimlarini mustahkamlashda interfaol uslublardan munozara, muzokara, muhokama, savol-javob, testlardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Bunda o'qitishning «Aqliy hujum», «Labirint», «Zinama-zina», «Charxpalak», «Idroksaritasi», «Bumerang», «Aql charxi», «Tushunchalar tahlili», «Muammo», «Blits-



so'rov», «Tarmoqlar» va shu kabi bir qator samarali uslublarini qo'llagan holda bilimlarni faollashtirib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, «Aqliy hujum» uslubi orqali kursantlarga savollarni berish bilan o'qituvchi, avvalo, o'tgan darslarni mustahkamlaydi, yangi mavzuni oydinlashtiradi, mavzulararo bog'lanishga erishadi, kursantlarda erkin fikr, mustaqil dunyoqarashni shakllantirib, fikrlarni zudlik bilan jamlash, tez, aniq va lo'nda javob berish, vaziyatni to'g'ri baholash kabi ko'nikmalarni uyg'otadi.

«Labirint» uslubida kursantlarning o'quv va kasbiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlarda vaziyatlarni to'g'ri baholash va tezlik bilan muammoning echimini to'g'ri topish ko'nikmalarini shakllantirish, bu boradagi ko'nikmalarini oshirishga ko'maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqini o'stirish, hamda muloqat qilish madaniyati shakllantiriladi.

«Muammo» uslubida kursantlarga o'quv fanining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki topshiriqning echimini to'g'ri topish o'rgatiladi, ularda muammoning mohiyatini, kelib chiqish sabablarini aniqlash bo'yicha bilimlarini shakllantirish, muammoni echishning usullari bilan tanishtirish, muammoni echishda o'ziga xos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni echishdagi xatti - harakatlarni to'g'ri tanlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

«Zinama-zina» uslubida kursantlarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash, hamda xotirlash, o'zlashtirgan bilimlarni yodda saqlash, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishda ifodalay olishga o'rgatadi. Bu uslub kursantlar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki kichik guruhlarga ajratgan holda o'tkazish imkonini beradi. Ushbu uslub kursantlarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir qilishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatadi.

«Blits-so'rov» uslubi o'tilgan bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha ma'ruzada egallangan bilimlarni kursantlar tomonidan mustaqil ravishda mustahkamlash, kursantlarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fan asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichida keraklisini tanlab olish, takrorlash va baholashlariga imkoniyat yaratish va barcha kursantlarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan bilim va ko'nikmalarini baholash imkoniyatlarini beradi. Ushbu uslubni amaliy mashg'ulotlarning barcha turlarida o'tilgan mavzuni o'zlashtirganlik darajasini takrorlash, mustahkamlash, baholashlarda qo'llash mumkin.

«Bumerang» uslubida kursantlarni mashg'ulot jarayonida, mashg'ulotdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materiallarni yodida saqlab qolish, fikrlarni erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lish, hamda mashg'ulot mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha kursantlarni baholay olishga qaratilgan. Bu uslub amaliy mashg'ulotlar, seminar va laborotoriya mashg'ulotlarida qo'llanishi mumkin.



Ma'ruza davomida kursantlarning faolliginioshish uchun savol-javobga jalb etib borish mashg'ulot jarayonining yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bu usul va uslublar kursantlarda erkin fikrlashni, o'z nuqtai nazarini bildirish va himoya qilish, muhokama qila olish malakasini yuzaga keltiradi. O'qitishga texnologik yondashuv o'quv jarayonini oqilona, ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi. Kursantlarning muhokamalar natijasida jamoa bo'lib qarorlar qabul qilishlarini professional tayyorgarligida muhim o'rin egallaydi. Mana shundan kelib chiqqan holda o'qitishning yangi texnologiyalarini o'quv jarayoniga kiritish doimiy ravishda kafedra ilmiy-uslubiy kengashining kun tartibidagi dolzarb masala bo'lib turibdi. Bu yo'nalishda o'qituvchilarning ilg'or ish uslublarini ommalashtirish maqsadida o'tgan yillarda fanlardan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etilmoqda.

Ilg'or ish uslublarini o'rganishda o'qituvchilar tomonidan tashkil etilayotgan ochiq darslarning ham tutgan o'rni va roli alohida ahamiyatga ega. Chunki ochiq dars jarayonida o'qituvchi tomonidan uning ilg'or ish faoliyati o'rganiladi, pedagogik jamoa dars yuzasidan o'z fikr-mulohazasini bildiradi. Bu esa, avvalo, dars jarayonida qo'llanilgan ish uslubini yanada takomillashtirishga hamda boshqa o'qituvchilar tomonidan o'z ish jarayoniga olib kiritilishiga imkon yaratadi.

Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi zamon talablariga muvofiq maxsus jihozlangan elektron trenajyor o'quv sinflariga ega. Bu o'quv sinflari kursantlarimizga dala o'quv maydonida qanday harakat qilishi lozimligi bo'yicha dastlabki amaliy bilim va ko'nikmalarni egallashlaridayaqindan yordam beradi. Markaz professor-o'qituvchilar tarkibi bu texnik vositalardan ham unumli foydalanishga harakat qilmoqdalar. SHu maqsadda o'qitiladigan fanlar mavzulari bo'yicha elektron test materiallari tayyorlangan bo'lib, kursantlarimiz bilimlarini o'zlari shaxsan tekshirib ko'rishi mumkin. Bu esa har bir kursant o'z xato va kamchiliklarini o'z vaqtida anglab olishiga imkoniyat beradi.

Interfaol usullarning qaysi birini qo'llashdan qat'iy nazar, eng avvalo, o'qituvchi mavzuning to'la-to'kis mohiyatini ochib berishi lozim. Muhimi, o'qituvchining ma'ruzasi har qanday bo'rttirishlardan xoli bo'lishi, misollarni asosan respublikamizning kundalik iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga bog'lagan holda olib borish, kursantlarda mavzudan zerikish emas, aksincha unga bo'lgan qiziqishni orttira olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchilarimiz tinimsiz izlanishi, yangi g'oyalarni ishlab chiqishi va uni amaliyotga tatbiq qilishi, mashg'ulotlarda bir-biriga o'xshamaydigan yangi pedagogik texnologiyalarva interfaol uslublardan foydalangan holda sifat samaradorligiga katta e'tibor qaratishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkin:

Bu keltirilgan sifatlar nafaqat o'qituvchining ta'lim jarayonida samarali ishtirokiga yordam beradi. Shuning uchun har bir kishi bu fazilatlarni o'zida tarkib toptirib borishi zarurdir. Zero, ta'lim berishda erkinlikka amal qilish, ko'zlangan natijani amalga oshirish, ta'lim berish va olish sharoitida ko'rinadigan ijtimoiy,



iqtisodiy, o'quv moddiy negizlari va barcha muammolarning hal etilishi inson tafakkuri va shuuri bilan bog'lik ekanligini hamda ta'lim jarayonlarida o'qituvchi va tinglovchilarning psixologik savodxonligi zarur ekanligini doimo yodda tutishimiz kerak.